

SINFDAN TASHQARI ISHLAR JARAYONIDA O`QUVCHILARNING MA`NAVIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING SHART- SHAROITLARI, SHAKLLARI VA USULLARI

D.Qurbonova,

O`zPFITI stajyor- tadqiqotchi-izlanuvchisi.

Huquqiy demokratik jamiyat qurish yo`lidan borayotgan mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki yillaridanoq, yoshlarning ta`lim-tarbiyasi, bilimli bo`lishi va ularning kelajakda jahon ta`limi standartlari talablariga javob beradigan, rivojlangan davlatlarning yoshlari bilan qobiliyatlari va ilmiy iqtidori orqali bellasha oladigan avlod bo`lib yetishishiga katta ahamiyat berdi. Albatta, bunday buyuk maqsad, vazifalarni amalga oshirishda, umumta`lim maktablarida olib boriladigan darslar, amaliy ishlar muhim ahamiyatga ega. Chunki bolalarning har qanday intilishlari, orzu-umidlari, niyatlari va talab-istaklarining yuzaga kelishi, eng avvalo, sinf mashg`ulotlari va sinfdan tashqari ishlar jarayonida shakllanadi.

Maktab, sinf xonalarida olib boriladigan darslar, amaliy mashg`ulotlar o`zining ta`sirchanligi va hayotga aloqadorligi bilan qanchalik muhim bo`lmasin, baribir, u yosh avlodni har tomonlama rivojlangan, komil inson darajasiga yetkazishda, ta`lim-tarbiyaviy ishlarning to`liq vazifasini bajara olmaydi. Sharqning mashhur allomasi Abu Rayhon Beruniy: “Bizning maqsadimiz shogirdni toliqtirib qo`ymaslikdir. Hadeb bir narsani o`qiy berish zerikarli bo`ladi va toqatni - toq qiladi. Agar shogird bir masaladan boshqa masalaga o`tib tursa, u xuddi turli-tuman bog`-rog`larda sayr qilgandek bo`ladi, bir bog`dan o`tar o`tmas, boshqa bog` boshlanadi. Kishi ularning hammasini ko`rishi va tomosha qilgisi keladi. Har bir yangi narsa rohat bag`ishlaydi,” deb behuda aytmagan. Shuning uchun ham Vatanimizda yosh avlodni har tomonlama kamol topgan shaxs darajasiga yetkazadigan komil inson tarbiyasi murakkab ish bo`lib, u davlat siyosati darajasiga ko`tarilgan. Prezidentimiz Islom Karimov bu haqida to`xtalib: “Biz komil inson tarbiyasini davlat siyosatining ustuvor sohasi deb e`lon

qilganmiz. Komil inson deganda biz, eng avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz," degan edi.

Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning ma'naviy madaniyatini shakllantirish, ta'lim-tarbiya tizimining asosiy bo'g'ini dars bilan bir qatorda, o'quvchilarning sinfdan va maktabdan tashqari faoliyatini tashkil etish hamda oila muhiti va jamoatchilik o'rtasida olib boriladigan madaniy-ma'rifiy tadbirlarning samaradorligini ta'minlashga ham bog'liq.

Shu nuqtai nazardan, biz sinfdan tashqari ishlar jarayonida, xalqimizning boy madaniy merosi vositasida, o'quvchilarning ma'naviy madaniyatini shakllantirishning samarali andozasini yaratishda quyidagilarga asosiy negiz sifatida tayandik: ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga yangicha metodologik yondashuv; falsafa, pedagogika, etnografiya, tarix, estetika, ruhshunoslik, uslubshunoslik fanlariga hozirgi zamon talabi; jumladan, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy yangilanish kontseptsiyasi; uzluksiz ta'lim tizimini milliylashtirish, insonparvarlashtirish, ta'lim-tarbiya mazmuni, shakl va usullarini yangicha talablar asosida takomillashtirish va amaliy ahamiyatini kuchaytirish.

Ma'naviy qadriyatlar asosida uyushtiriladigan sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarning mazmuni, shakl va usullari samaradorligi uning xarakterli xususiyatlarini aniqlab belgilab olish bilan bog'liq.

O'quvchilarning ma'naviy dunyoqarash va faoliyatini shakllantirishga yo'naltirilgan sinfdan tashqari tarbiyaviy tarbiyalarning **asosiy xususiyati**, u o'quvchilarning kundalik hayotining tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lishidir. O'quvchilar o'quv ishlarining davomi sifatida, sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarda bevosita ishtirok etadilar, turli mazmundagi ma'ruzalar, suhbatlar, savol-javoblarda qatnashadilar, tinglaydilar, o'z ma'naviy saviyalarini boyitib boradilar. **Ikkinchi xususiyati**, u ta'lim jarayonida bilim, malaka va ko'nikmalarni mustahkamlash, qo'shimcha ma'lumotlar bilan boyitish, o'quvchilarni ma'naviy merosga qiziqishlarini o'stirish maqsadida tashkil etiladi.

O`quvchilar ta'lim jarayonida olinadigan bilimlarni takrorlamaydi, aksincha, ularning qiziqishi, xohishi, intilishi, tarbiyaviy ehtiyoji asosida, yangi mazmun, shakl va usullar bilan uyushtiriladi.

Ma'naviy madaniyatni shakllantirishning asosi bo'lgan milliy ong va milliy g'ururni shakllantirishda, tarbiyaviy tadbir uchun material tanlashda quyidagi tamoyillarga amal qilinadi:

- o`quvchilarning yoshi, ruhiy holatiga mosligi;
- o`quvchilarning aqliy zakovati, hissiyoti, irodasi, ma'naviy dunyosiga, amaliy faoliyatiga ta'siri;
- o`zligini anglashda o`tmish boy madaniy-ma'rifiy meros dinamikasi haqida bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish imkoniyatlari;
- ma'naviy, milliy qadriyatlarni tiklashdagi munosib o`rni;
- o`quvchilarning shaxsiy, hududiy imkoniyatlari va maktab sharoitiga mosligi;
- ma'naviy madaniyatning barcha qirralarini o`zlarida mujassam etish;
- dars jarayonida o`rganilgan mavzuni mustahkamlash, to`ldirish, tarbiyaviy ta'sirchanligini oshirish, chuqurlashtirishga xizmat qilish; bu o`rinda quyidagi yo`nalishlar bo'yicha tanlash ishlari amalga oshiriladi:

a) dastur, darslikka kirmagan, lekin mustaqil o`rganish uchun tavsiya etilgan manbalar;

b) dastur materiallariga chuqurlashtirish uchun zarur va xarakterli bo'lgan qo`shimcha ma'rifiy qadriyatlar;

v) dastur materiallariga aloqasiz bo'lsa ham, lekin o`quvchilarning umumiy saviyasini o`stirish uchun xizmat qiladigan manbalar.

Ma'naviy qadriyatlar asosida, o`quvchilarning ma'naviy madaniyatini shakllantirishga yo`naltirilgan sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarga rahbarlikni amalga oshirishda mutasaddilarning vazifalari quyidagilardan iboratdir: tarbiyaviy tadbir mavzusini bildirish; o`quvchilarning tarbiyaviy tadbir g`oyasiga munosabatini faollashtirish; tadbirni o`tkazish va unga qo'yilgan tarbiyaviy vazifalarning hal qilinishini ifodalovchi natijalarini yakunlash; o`quvchilarning

tadbir vaqtidagi hatti-harakatlarini, o`zaro munosabatlarini baholash; o`quvchlarda milliy ong, milliy g`ururni shakllantirishga erishish.

Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarga rahbarlik qilishning pedagogik tomoni o`quvchilarning yosh va o`ziga xos ruhiy xususiyatlarini tahlil qilishni, ma'naviy ong va g`ururni shakllantirish jarayoni uchun muayyan maqsad va vazifalar qo`yishni, tarbiyaviy tadbirning eng samarali shakllari, usullari hamda vositalarini aniqlashni talab qiladi.